

BO`LAJAK PEDAGOG MUTAXASSISLARDA KASBIY MOSLASHUVNING TA`LIM SAMARADORLIGIGA TA`SIRINING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Turdialiyev Nurmatjon Olimjon o`g`li
Namangan davlat universiteti
Psixologiya faoliyat turlari bo`yicha
ikkinchi bosqich magistranti

Abstract: This article presents a research paper on the topic, which highlights the psychological mechanisms of professional adaptation of a teacher and its impact on the effectiveness of teaching.

Keywords: teacher, adaptation, reflection, personality, identification

Аннотация: В данной статье представлена исследовательская работа по теме, в которой освещаются психологические механизмы профессиональной адаптации педагога и ее влияние на эффективность обучения.

Ключевые слова: педагог, адаптация, рефлексия, личность, идентификация

Annotatsiya: Ushbu maqolada o`qtuvchining kasbiy moslashuvi va uning ta`lim samaradorligiga ta`sirining psixologik mexanizmlari yoritilib mavzu bo`yich tadqiqot ishi keltirilgan.

Kalit so`zlari: pedagog, adaptasiya, refleksiya, shaxs, identifikasiya

KIRISH

Bugungi kunda jamiyatimizda o`qtuvchiga bo`layotgan etibor tobora kuchayib bormoqda, va uning kasbiy xar tomonlama intellektual aqliy salohiyatili bo`lishi o`quvchilarning va talabalarining o`ziga jalb etishida namoyon bo`ladi, aksincha uning aksi bo`lsa o`qtuvchining shani va qadir qimmatini pasayadi. SHuning uchun pedagog birinchi navbatda o`zining kasbiga va muxitga adaptatsiya hoxil qilishi kerak, shundagina ta`limning samaradorligi talabalarining bilim egalashlarida o`rish namoyon bo`ladi.

Ma`lumki bo`lajak o`qituvchilarni kasbiy tayyorlashning refleksiv, ijtimoiy-madaniy, ijodiy, kasbiy o`zini o`zi rivojlantirish, qadriyatlar yo`nalishi jihatdan o`ziga xos maktablar yaratilgan bo`lib, ular ichida eng e`tirofqa sazovor tadqiqotlar sifatida I.N. Semenov, S.N. Maslov, O.A. lar o`z ishlarida kasbiy tayyorgarlikning asosiy mezonlari sifatida bo`lajak mutaxassisning faoliyatga amaliy tayyorgarligi va ixtisoslik doirasidagi bilim, ko`nikma va malakalarning o`zlashtirish, kasbiy faoliyat talablariga moslashish darajasi haqida bayon etishgan. Kasb tushunchasi – bu maxsus tayyorgarlikni talab etuvchi, inson doim tajribadan o`tkazuvchi va unga yashash uchun

manba bo'lib xizmat qiluvchi mashg'ulotdir. Kasb bir xil faoliyat bilan shug'ullanuvchi kishilarni birlashtiradi va bu faoliyat ichida ma'lum aloqalar va axloq normalari o'rnatiladi ¹.

E.A. Klimov tadqiqotlarida “Kasb – jamiyat uchun zarur va qadriyatli soha bo'lib bunda insondan jismoniy va ruhiy kuch talab etadi”, deya ta'kidlaydi.

V.G. Makushin esa, kasb – bu shunday faoliyatki, uning yordamida shaxs jamiyat hayotida ishtirok etadi va uning yashashi uchun moddiy vositalar asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi, deya ta'kidlaydi. Mutaxassislik – kasbiy ta'lim, tayyorgarlik yo'li bilan o'zlashtirilgan ish jarayonidagi maxsus bilimlar, ko'nikma va malakalar majmuasi bo'lib, ular u yoki bu kasb doirasida ma'lum faoliyat turini bajarish uchun zaruriy hisoblanadi.

Shunday qilib, mutaxassislik – kasb ichidagi kasbiy faoliyat turi bo'lib, u shaxsiy yutuqlarga yoki o'ziga xos vaziyatlar orqali umumiy natijalarga erishishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Kasbiy faoliyat samaradorligining shartlaridan biri mutaxassisning kasbiy tayyorligi hisoblanadi.

Mashhur rus psixologi I.K. Platonovning fikriga ko'ra, “kasbiy tayyorgarlik – bu o'zini kerakli kasbiy faoliyatni bajarishga qodir va tayyorgarlik ko'rgan deb hisoblovchi va uni bajarishga intiluvchi shaxsning sub'ektiv holatidir”.

Kasbiy moslashtirish – bo'lajak mutaxassisning kasbiy faoliyat talablarini o'zlashtirishi, individualashuvi demakdir.

Ma'lumki, har bir oliy ta'lim muassasasining muhim vazifalaridan biri bu birinchi kurs talabalarini o'qitishning yangi tizimiga, yangi ijtimoiy munosabatlarga ijobiy moslashuvini, talabalik maqomini muvaffaqiyatli o'zlashtirishlarini ta'minlashdir.

Talabalarni oliy ta'lim muassasasi sharoitiga moslashtirishda quyidagi jihatlarni alohida ko'rsatib o'tish lozim:

1) talabalarda moslashuv jarayonining kechishi murakkaab dinamiklikka ega bo'lib, ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega qadriyatli tasavvurlarni o'zaro uyg'unlashuvini talab etadi;

Darhaqiqat, kasbiy moslashuv murakkab va ko'p qirrali jarayon hisoblanib, uning negizida muayyan kasb bo'yicha muvaffaqiyatli ishlashni ta'minlovchi imkoniyatlar, shaxsning yo'nalganligi, kasbiy bilim, ko'nikma, malaka va kasbiy sifatlar, mehnat tajribasi ham asosiy mezonlar ko'rinishida namoyon bo'ladi .

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatga dastlabki salohiyatli tayyorligi ayni vaqtdagi amaliy tayyorligining asosi hisoblanadi. Shuning uchun ta'lim muassasalaridagi kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish jarayonida talabalarda kasbiy

¹ Klimov E.A. Psixologiya professionalnogo samoopredeleniya. – Rostov-na-Donu: Finiks, 1996. S–12-14.


faoliyatni amalga oshirish uchun etarli bo'lgan kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish lozim bo'ladi.

shakllanganlik darajasini baholashga qaratildi.

Ma'lumki, talabalik davri - mehnat hayotida o'z-o'zini aniqlab olish yoshi bo'lib, bu vaqt talabada o'zining kelajakdagi kasbiy hayotiy maqsadlarini aniq belgilab olish intilishi paydo bo'ladi. Bu davrda talaba ongli to'g'ri qarorqabul qilishi uchun birinchidan, amaldagi mehnat bozorining u yoki bu kasb turiga bo'lgan ehtiyojini, ikkinchidan, o'z moyilligi va bu kasb qo'yadigan talablarga qanchalik muvofiq kelishini bir so'z bilan aytganda tanlangan kasb mohiyatidan to'liq xabardor bo'lishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy moslashtirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish metodikasi o'tkazildi va natijalar taxlil qilindi.

Pedagogik faoliyatga moslashish darajasi (Tajriba guruhi)



So'rovnoma natijalarini o'rganish bo'lajak o'qituvchilarning motivatsion tayyorgarligini yoritishning quyidagi jihatlariga alohida e'tibor berish lozimligi ko'rsatadi:

1. Talabalardagi ichki sabablarga asoslangan kasbiy yo'nalganlik (motivlar, ehtiyojlar, maqsad va qiziqishlar asosida shakllangan kasbiy yo'nalganlik). Bu asosan 3-4 bosqich talabalariga xos xususiyat sifatida tadqiq etildi.

Talabalardagi tashqi sabablarga asoslangan kasbiy yo'nalganlik ya'ni kasbiy faoliyatning tashqi shart – sharoitlari va holatiga asoslangan yo'nalganlik. Bu xususiyat aksariyat 1 - bosqich respondentlarida kuzatildi.

Xususan, 1-bosqich talabalarining 17 tasida pedagogik faoliyatga intilish darajasi yuqori, 20 tasida o'rta, 13 tasida quyi daraja aniqlandi.

Ikkinchi bosqichi talabalarida bu ko'rsatgich quyidagicha ko'rinishni aks ettirdi, ya'ni jami 50 talabadan 12 tasida pedagogik faoliyatga intilishning yuqori darajasi, 17 tasida o'rta va 21 tasida quyi daraja kuzatildi.

Uchinchi bosqichda yuqori daraja 15 ta respondentda, o'rta daraja 21 ta va quyi daraja 14 ta respondentda aniqlandi.

Bitiruvchi kurs talabalarining so'rovnoma savollariga bergan javoblari tahlil etilganida pedagogik faoliyatga intilishning yuqori darajasi 25 ta, o'rta darajasi 13 ta va quyi daraja 12 ta respondentda o'rganildi.

Natijalardan ko'rinib turibdiki, pedagogik faoliyatga intilish motivatsiyasi 1-4 bosqich talabalarida 2-3 bosqichi talabalariga qaraganda yuqoriroq natijalar ko'zga tashlandi. Buning sababini kasb tanlash motivlari, kasbiy o'zini anglash, kasbiy tasavvurlar bilan bog'lab tahlil etish maqsadga muvofiqdir. Chunki, dastlabki kasbiy tasavvurlar ta'sirida pedagogik faoliyatga intilish darajasi yuqori bo'lsa (1-bosqich), kasbiy faoliyatning shaxsga qo'yadigan talablari, kasbiy kompetentsiyalarni o'zlashtirishdagi mashshaqqatlar hamda moslashish jarayonidagi qiyinchiliklar bu intilishning muayyan davrda susayishiga (2-3 bosqich) sabab bo'lgan. Kasbiy moslashish jarayonlarining samarali kechishi, kasbiy kompetentsiyalarni o'zlashtirish, kasbiy faoliyatda o'zini anglash esa 4-bosqich talabalardagi faol kasbiy pozitsiyaning shakllanishiga sabab bo'lgan.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkin olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijalarning tahlili bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy moslashtirishda umumkasbiy va maxsus fanlarning o'qitilishiga innovatsion texnologiyalar asosidagi samarali yondashuvlaridan foydalanish; mustaqil-ijodiy faoliyatga yo'naltirilgan pedagogik jarayon mazmunini belgilash, uni amalga oshirish; pedagogik amaliyot va uni tashkil etishning samarali yondashuvlarini ishlab chiqish; talabalarning kasbiy tayyorgarlik darajasini tizimli, individuallashtirilgan holdagi interfaol o'qitish dasturlari orqali shakllantirib borish tadqiqot maqsadini amalga oshiruvchi zaruriy chora-tadbirlardan ekanligiga ishonch hosil qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'oziev E. Psixologiya. Yosh psixologiyasi / Pedagogika institut va universitet talabalarini uchun o'quv qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 1999. – 223 b.
2. G'oziev E., Mamedov K. Kasb psixologiyasi. – T.: 2003. – 156 b.
3. Haydarova O.Q. Bo'lajak o'qituvchilarni ta'lim jarayoniga texnologik yondashuvga tayyorlash: Ped.fan.nomz. ... diss.avtoref. – T.: 2004. – 23 b.

4. Haydarov F.I., Xalilova N.I. Psixologiya fanlarini o'qitish metodikasi. / O'quv qo'llanma. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2006. – 178 b.
5. Odilboyevich, J. X. (2023). SHAXS IJTIMOYIY XIMOYASIZLIGI VA UNING OGISHGAN XULQ-ATVORIGA TASIRIDA SHAKILANADIGAN PSIXOANALITIK HIMOYA MEHANIZMLARI ORNI VA AXAMIYATI. PEDAGOGS jurnali, 33(2), 186-189.
6. Odilboyevich, J. X. (2023). PSYCHOTIC AND LIMITED NEUROTIC LEVELS DURING PERSONALITY SOCIAL LIFE. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 21(4), 27-34.
7. Jurayev, H. (2023). OLIY O'QUV YURLARIDA TALABALARGA PEDAGAGIK VA PSIXOLOGIK XIZMAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH. TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI. <https://doi.org/https://doi.org/10.5281/zenodo.7945447>
8. Odilboyevich, J. H. (2023). SHAXS VA UNING TEMPERAMENTIDA PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARINING ORNI VA AXAMIYATI MOSLASHISHDA UNING TARKIBIY QISMLARI. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2(19), 78-84.
9. Haydarjon, J. (2022). SHAXS IJTIMOYIY XIMOYASIZLIGINI OGISHGAN XULQ ATVORGA TASIRINI IJTIMOYIY PSIXOANALITIK MEXANIZMLARI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMYIY JURNALI, 2(1), 9-12.
10. Odilboyevich, J. X., & Shokhrukhbek, M. (2023, April). The Role and Importance of (Ego) and (Id) in the Psyche of Children in Adolescence. In International Conference on Research Identity, Value and Ethics (pp. 28-33).